



## XALQ DEPUTATLARI QUMQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

Qumqo'rg'on tumani, O'zbekiston shoh ko'chasi 1-uy. 190900, tel.: (+99876)46-52-511

2022 - yil 25 - mart

VI-43-40-8-114-K/22

Qumqo'rg'on tuman hokimligi

### **Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasi, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 23-moddasi, "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8, 10, 11 va 12-moddalariga muvofiq, shuningdek fuqarolar yig'inlari raislarining vakolat muddati 2022-yilning may oyida tugashi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 16-martdagi KQ-321-IV-sonli qarorini ijro etish maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi 2022-yil 16-martdagi KQ-321-IV-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari)ning navbatdagi saylovi 2022-yilning may oyida o'tkazilsin.

3. Navbatdagi saylovda 61 nafar fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqol)lari saylanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

2022-yil may oyida fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va

o‘tkazishga ko‘maklashuvchi tuman komissiyasining tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovi bo‘yicha saylov byulleteni namunasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarga o‘z saylov okrugida fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishni tashkil etishda faol qatnashish tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimligi fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish hamda o‘tkazishda fuqarolar yig‘inlariga ko‘maklashish, zarurat bo‘lganda ularni binolar, transport va aloqa vositalari bilan ta‘minlash choralari ko‘rsin.

7. “Qumqo‘rg‘on sadosi” gazetasi (R.Mengziyayeva) fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazish jarayonini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (N.Narzullayev) fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash choralari ko‘rsin.

9. Tuman tibbiyot birlashmasi (R.Qo‘yliyev) Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi Qumqo‘rg‘on tuman bo‘limi (D.Nurmatov) bilan birgalikda fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovi o‘tkaziladigan joylarda tibbiyot punktlari faoliyatini yuqori darajada tashkil etsin hamda sanitariya-gigiyena talablari va karantin qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilsin.

10. Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi tuman komissiyasi fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovi yakunlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirsin hamda 2022-yil 2-iyunga qadar Xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot bersin.

11. Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kirishi belgilansin.

**Kengash raisi**



**R.B.Gapparov**

Xalq deputatlari Qumqo'rg'on tuman Kengashining  
2022 yil 25 martdagi  
VI-43-40-8-114-K/22-son qaroriga  
1-ilova

## 2022-yilning may oyida fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha

### TADBIRLAR REJASI

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
<b>I. Tayyorgarlik bosqichi</b> <b>(fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy chora-tadbirlar)</b>				
1.	Tuman komissiyasi yig'ilishini o'tkazish, komissiya a'zolarini hududlarga biriktirish hamda ularning vazifalarini belgilash	1. Tuman komissiyasi a'zolari yig'ilishini o'tkazish. 2. Tuman komissiyasi a'zolarini hududlarga biriktirish. 3. Tuman komissiya a'zolariga vazifalar taqsimotini ishlab chiqish.	2022-yil 25-martgacha	Tuman komissiyasi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi
2.	O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyatini mahallalar miqyosida tushuntirish	1. "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi Qonun mazmun-mohiyatini mahallalarda tushuntirish maqsadida alohida reja-jadval ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Huquqshunos va soha mutaxassisleri tomonidan reja-jadval asosida mahallalarda O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi Qonuni mazmun-mohiyatini tushuntirish.	2022-yil 25-martgacha	Mahalliy Kengash deputatlari, Adliya bo'limi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi
3.	"Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi Qonuni mazmun-mohiyatini keng tushuntirish, aholini saylov jarayonlarida faolligini oshirishga qaratilgan teleko'rsatuv va radioeshittirishlar, ijtimoiy rolklar hamda maqolalar tayyorlash	1. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha media-reja ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Tayyorlangan maqolalarni ommaviy axborot vositalarida yoritish.	2022-yil 31-martgacha  Media-reja bo'yicha	Tuman komissiyasi, "Qumqo'rg'on sadosi" gazetasi tahririyati

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
4.	Saylov xarajatlari uchun mablag' ajratish	. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi bo'yicha xarajatlar smetasi	2022-yil 31-martgacha	Tuman komissiyasi, Moliya bo'limi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi
5.	Hududlar, fuqarolar yig'inlari kesimida saylov yoshiga to'lgan fuqarolarning umumiy ro'yxatini shakllantirish	1. Hududlar, fuqarolar yig'inlari kesimida saylov yoshiga to'lgan fuqarolarning umumiy soni va ro'yxatini shakllantirish bo'yicha so'rovnomalar yuborish. 2. Saylov yoshiga to'lgan fuqarolarning umumiy soni bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish.	2022-yil 31-martgacha	Tuman komissiyasi, tuman statistika bo'limi, Ichki ishlar bo'limi, tuman hokimligi
6.	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasini tuzish, komissiya yig'ilishini o'tkazish	1. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasini tuzish. 2. Komissiya yig'ilishini o'tkazish va unda quyidagi masalalarni ko'rib chiqish: - komissiya ish rejasini tasdiqlash; - komissiya a'zolarini mahallalarga biriktirish; - fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini fuqarolar yig'ini yig'ilishi shaklida hamda fuqarolarning vakillari yig'ilishi shaklida o'tkazishni ko'rib chiqish; - saylov yoshiga to'lgan fuqarolar umumiy sonining kamida o'n ikki foizi miqdorida fuqarolar yig'inlari kesimida vakillik normasini belgilash; - Ishchi guruhlarni tuzish bo'yicha fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish jadvalini tasdiqlash; - Ishchi guruhlardan fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlarga doir hujjatlarni qabul qilib olish muddatida tartibini belgilash kabi boshqa masalalarni ko'rib chiqish.	2022 yil 31 martgacha	Tuman komissiyasi, xalq deputatlari tuman Kengashi

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
7.	Fuqarolar vakillarining yig'ilishi shaklida saylov o'tkaziladigan fuqarolar yig'inlarini aniqlab olish	Fuqarolarning vakillari yig'ilishi shaklida o'tadigan fuqarolar yig'inlari ro'yxatini shakllantirish va sonini aniqlash.	2022-yil 31-martgacha	Tuman komissiyasi, Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi
8.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi o'tkaziladigan manzil va ob'ektlarni aniqlashtirish va ro'yxatini shakllantirish	1. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi o'tkaziladigan manzil va ob'ektlarni aniqlashtirish. 2. Tuman fuqarolar yig'inlari kesimida saylov o'tkaziladigan manzil va ob'ektlar ro'yxatini shakllantirish.	2022-yil 31-martgacha	Tuman komissiyasi, tuman hokimligi
9.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish uchun ovoz berish kabinalari, qutilar va kerakli anjomlar bilan ta'minlash	Tuman hokimligi bilan birgalikda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish uchun zarur miqdorda ovoz berish kabinalari, qutilar va kerakli anjomlar bilan ta'minlash.	2022-yil 20-aprelgacha	Tuman hokimligi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
10.	Ishchi guruhlarini tuzish yuzasidan fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish	<p>1. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi tomonidan tasdiqlangan jadvalga asosan fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni chaqirish to'g'risida kengash qarorini qabul qilish.</p> <p>2. Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish va unda quyidagi masalalarni ko'rib chiqish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Ishchi guruhini tuzish va tarkibini tasdiqlash;</li> <li>- fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi belgilagan vakillik normasi asosida saylov yoshiga to'lgan fuqarolarning umumiy sonining o'n ikki foizidan kam bo'lmagan miqdorida mavjud ko'chalar va uylarga taqsimlash;</li> <li>- Ishchi guruh a'zolarini hududdagi hovlilar, uylar, ko'chalarga birlashtirish hamda fuqarolar vakillarini saylash bo'yicha umumiy yig'ilishlarini o'tkazish jadvalini tasdiqlash;</li> <li>- fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi tomonidan belgilangan vakillik normasi asosida hududdagi mavjud hovlilar, uylar, ko'chalarga taqsimlash;</li> <li>- saylov o'tkaziladigan sana, vaqt va joyini belgilash;</li> <li>- fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish masalalari yuzasidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish kabi boshqa masalalarni ko'rib chiqish.</li> </ul>	2022-yil 31-martgacha	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi, mahalla fuqarolar yig'inlari

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
11.	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish hamda o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiyalarni va ishchi guruhlarini "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi", "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi va "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonun matnlari, qonun osti hujjatlari kiritilgan to'plam bilan ta'minlash	1. Chop etilgan to'plamni hududlardagi ko'maklashuvchi komissiyalar va ishchi guruhlariga yetkazish.	2022-yil 31-martgacha	Tuman komissiyasi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi
12.	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi hamda Ishchi guruh a'zolari uchun seminar-treninglar o'tkazish	1. Jadvalga muvofiq hududiy seminar-treninglar tashkil etish va o'tkazish.	2022 -yil 20 -aprelgacha	Tuman komissiyasi, Xalq deputatlari tuman kengashi deputatlari, Adliya bo'limi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, tuman hokimligi
13.	Saylov byulletenlarini fuqarolar yig'inlariga yetkazilishini ta'minlash	1. Tuman hokimligi tomonidan saylov byulletenlarini ehtiyojdan kelib chiqib belgilangan tartibda chop etish. 2. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish, fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi tomonidan saylov byulletenlarini fuqarolar yig'inlariga yetkazilishini ta'minlash.	Saylov kundan kamida 5 kun oldin	Xalq deputatlari tuman Kengashi  tuman komissiyasi, tuman hokimligi
<b>II. Asosiy bosqich</b> <b>(fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish, saylov yakunlarini chiqarish, OAVda e'lon qilish)</b>				

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
14.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar ko'rsatish	<p>1. Ishchi guruhi tomonidan tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning fikrini inobatga olgan holda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar bo'yicha takliflar va ularning hujjatlarini tayyorlash.</p> <p>2. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlarning o'z nomzodi ko'rsatilishiga yozma roziligini ilova qilgan holda ularning hujjatlarini tuman hokimi bilan kelishish uchun tegishli komissiyaga taqdim etish.</p> <p>3. Tuman hokimi tomonidan uch kun muddatda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga ko'rsatilgan nomzodlarning hujjatlarini ko'rib chiqib, o'zining asoslantirilgan xulosalarini ishchi guruhlariga topshirish uchun tegishli komissiyaga yuborish.</p> <p>4. Tegishli komissiya tomonidan bir kun muddatda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga ko'rsatilgan nomzodlar bo'yicha tuman hokimining asoslantirilgan xulosalarini ishchi guruhlariga yetkazish.</p>	<p>2022 -yil 10-aprelgacha</p> <p>Saylovdan kamida o'n kun oldin</p>	Ishchi guruhlar, Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi
15.	Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) o'tkaziladigan sana, vaqt va joyi belgilash hamda bu haqda tegishli hududda yashovchi fuqarolarni xabardor qilish. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar haqidagi axborotni fuqarolar yig'ini binosiga va guzarlarga osib qo'yish hamda veb-saytlarga joylashtirish	<p>1. Tegishli hududda yashovchi fuqarolarga fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish kuni, vaqti va joyi haqida xabar berish.</p> <p>2. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar haqidagi axborotni fuqarolar yig'ini binosiga va guzarlarga osib qo'yish.</p> <p>3. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish, fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) o'tkaziladigan sana, vaqt va joy, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar to'g'risidagi axborotni tuman hokimligi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashning rasmiy veb-saytiga joylashtirish.</p>	Saylovdan kamida besh kun oldin	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi, Ishchi guruhi



№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
16.	Tumanda fuqarolar yig'inlari kesimida fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish jadvalini tayyorlash	1. Ishchi guruhlardan fuqarolar yig'inlarida saylov o'tkazish kuni, vaqti, joyi haqidagi ma'lumotlarni olish va umumlashtirish. 2. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi tomonidan fuqarolar yig'inlari kesimida saylovni o'tkazish jadvalini tasdiqlash.	2022- yil 20- aprelgacha  2022 -yil 25 -aprelgacha	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi, Ishchi guruhi
17.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish	Saylovni yashirin ovoz berish orqali o'tkazish.	Jadvalga muvofiq	Ishchi guruhlar, Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi
18.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) takroriy saylovini o'tkazish	Qonunda belgilangan hollarda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) takroriy saylovini o'tkazish.	Saylov o'tkazilgan kundan keyin 1 oy muddatda	Ishchi guruhlar, Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi
19.	Viloyat komissiyasiga axborot taqdim etib borish, shuningdek, fuqarolar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalarni umumlashtirish	1. Saylov jarayoni to'g'risida Respublika komissiyasiga axborot berib borish. 2. Saylovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha fuqarolar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalarni umumlashtirish.	Har haftada  Saylov yakunlari bo'yicha	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi
20.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovining yakunlarini chiqarish, ularni umumlashtirish, ko'rib chiqish va keng jamoatchilikka yetkazish uchun Respublika komissiyasiga taqdim etish	1. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi tomonidan saylov yakunlarini chiqarish. 2. Saylov yakunlari to'g'risida axborotni viloyat komissiyasiga taqdim etish. 3. Tuman komissiyasi tomonidan saylov yakunlarini umumlashtirish va ko'rib chiqish.	2022 -yil 5 -iyungacha  2022 -yil 8- iyungacha	Tuman komissiyasi, Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi
21.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi yakunlarini jamoatchilikka yetkazish	1. Saylov yakunlarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish.	2022 -yil 15- iyungacha	tuman komissiyasi, "Qumqo'rg'on sadosi" gazetasi tahririyati

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
22.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi o'tadigan obyektlarda xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash hamda tez tibbiy yordam xizmatini tashkil etish	1. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish jadvaliga muvofiq saylov o'tadigan ob'ektlarida xavfsizlikni ta'minlash va jamoat tartibini saqlash. 2. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish jadvaliga muvofiq saylov o'tadigan obyektlarida tez tibbiy yordam xizmatini tashkil etish.	Saylovni o'tkazish jadvaliga muvofiq	Tumanichki ishlar bo'limi, tuman tibbiyot birlashmasi, tuman hokimligi
<p><b>III. Saylovdan keyingi bosqich</b>  <b>(fuqarolar yig'ini organlarini shakllantirish, raislarini o'qitish, ularning innovatsion va axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlarini oshirish)</b></p>				
23.	Fuqarolar yig'ini kengashini shakllantirish, fuqarolar yig'inlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarni va taftish komissiyasini saylash	1. Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish. 2. Fuqarolar yig'ini kengashini shakllantirish. 3. Yig'in faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarni va taftish komissiyasini saylash.	Saylov natijalari bo'yicha 1 oy davomida	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi hamda mahalla fuqarolar yig'inlari
24.	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining tashkiliy-huquqiy asoslari, raislarning huquq va majburiyatlarini tushuntirish va amaliyotda qo'llash bo'yicha o'quv-seminarlar tashkil etish	1. Hududlarda o'quv-seminarlarini alohida reja asosida tashkil etish va o'tkazish.	2022- yil 1- iyulgacha	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, tuman hokimligi
25.	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari)ni innovatsion bilimlarini oshirish maqsadida seminar-treninglar o'tkazish	1. Hududlar kesimida seminar-treninglar o'tkazish jadvalarini tasdiqlash. 2. O'quv mashg'ulotlarini alohida reja asosida tashkil etish va o'tkazish.	2022 -yil 20- iyulgacha	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, tuman hokimligi
26.	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari)ni axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bilimlarini oshirish	1. Hududlar kesimida seminar-treninglar o'tkazish jadvalarini tasdiqlash. 2. O'quv mashg'ulotlarini alohida reja asosida tashkil etish va o'tkazish.	2022- yil 20- avgustgacha	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, tuman hokimligi

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
---	----------------	---------------------------	--------------	-------------------

*Izoh: Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi nomi jadvalda tuman komissiyasi deb yuritilgan.*

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman  
Kengashining  
2022 yil 25 martdagi  
VI-43-40-8-114-K/22-son qaroriga  
2-ilova

## Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi tuman komissiyasi

### T A R K I B I

#### Komissiya raisi

1. Namozov Mamarajab – O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi  
Abduxoliqovich Qumqo‘rg‘on tumani Kengashi raisi.

#### Komissiya raisining o‘rinbosarlari

2. Chorshanbiyev Qurbon – Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman  
Saffarovich Kengashi kotibiyati mudiri
3. Lavozimiga ko‘ra – Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash  
bo‘limi boshlig‘i

#### Komissiya kotibi

4. Choriyev Odil Sharipovich – Tuman hokimligi ijro intizomi bo‘yicha bosh  
mutaxassisi

#### Komissiya a‘zolari

5. Qultayev Chori Esonovich – Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash  
bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari, Xalq deputatlari  
tuman Kengashi deputati
6. Mo‘minova Dilnoza – Qumqo‘rg‘on Tuman Xalq ta‘lim bo‘limining  
Xo‘shboqovna Ma‘naviy tarbiyaviy va axloqiy va BIX shuba  
rahbari, Xalq deputatlari tuman Kengashi  
deputati
7. To‘xtayev Rustam – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
To‘rayevich Qumqo‘rg‘on tumanidagi Xalq qabulxonasi  
mudiri
8. Lavozimiga ko‘ra – Tuman hokimining o‘rinbosari-Oila va xotin-  
qizlar bo‘limi boshlig‘i
9. Menglibayev Yoqub Urol – Qumqo‘rg‘on tuman hokimligining tashkiliy-  
o‘g‘li kadrlar guruhi rahbari
10. Ashurov G‘ayrat – Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i  
Namozovich o‘rinbosari-jamoat xavfsizligi xizmati  
boshlig‘i
11. Allayarov Sherzod – Qumqo‘rg‘on tuman statistika bo‘limi  
Abdikarimovich boshlig‘i
12. Mengziyayeva Rayxon – “Qumqo‘rg‘on sadosi” gazetasi bosh  
Yangiboyevna muharriri

13. Xakimov Baxrom Boxodir – O‘zbekiston mudofaasiga ko‘maklashuvchi o‘g‘li “Vatanparvar” tashkiloti Qumqo‘rg‘on tuman tashkiloti kengashi raisi
14. Mammadiyev Shoxruxmirzo Abdullaxon o‘g‘li – Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Qumqo‘rg‘on tumani bo‘limi rahbari
15. Shoyimqulov Boybo‘ri Eshdavlatovich – Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i o‘rinbosari
16. Tangirov Otabek Xurramovich – Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi Qumqo‘rg‘on tuman bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari
17. Suvonov Safar Ergashovich – Qumqo‘rg‘on tuman iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari hududiy birlashmasi raisi
18. Mengliboyev Baxtiyor Toshtemirovich – O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondi Qumqo‘rg‘on tuman bo‘linmasi boshlig‘i

*Izoh: Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi tuman komissiyasi a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, komissiyasi a‘zolari tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalar yuklangan shaxslar kiritiladi.*

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman  
Kengashining  
2022 yil 25 martdagi  
VI-43-40-8-114-K/22-son qaroriga  
3-ilova

**NAMUNA**

Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumanidagi “\_\_\_\_\_” mahalla

fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi bo‘yicha

## SAYLOV BYULLETENI

2022 yil \_\_\_ may

Rasm uchun joy	Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodning familiyasi, ismi, otasining ismi va tug‘ilgan yili	O‘zingiz yoqlab ovoz berayotgan nomzodning familiyasi qarshisida joylashgan bo‘sh katakka “+”, “ü” yoxud “x” belgilaridan birini qo‘ying
	ABDULLAYEV TOHIR SAMADOVICH, 1965 yilda tug‘ilgan	
	BURXONOV NODIRBEK QOSIMOVICH, 1960 yilda tug‘ilgan	
	JURAYEV BOTIRJON ZARIPOVICH, 1963 yilda tug‘ilgan	
	MURODOV ABDULLA AZIMOVICH, 1970 yilda tug‘ilgan	

Agar byulletenning o‘ng tomonida joylashgan bittadan ortiq bo‘sh katakka “+”, “ü” yoxud “x” belgilaridan biri qo‘yilgan yoki bo‘sh kataklarning birontasiga bunday belgilardan biri qo‘yilmagan bo‘lsa, saylov byulleteni haqiqiy emas deb hisoblanadi.

*Izoh: Har bir byulletenning orqa tomoniga ishchi guruhi rahbari va bir a‘zosi hamda fuqarolar yig‘iniga biriktirilgan tuman (shahar) ko‘maklashuvchi komissiyasi a‘zosining imzolari qo‘yilib, fuqarolar yig‘inining muhri qo‘yilishi lozim)*